

## ISHLAB CHIQRILGAN MAHSULOT TANNARXI TO'G'RISIDAGI HISOBOTI

*Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti  
Katta o'qituvchi Xudaynazarova Dilnoza  
BH-324 guruh talabasi Abduahadov Samandar*

### Abstract

This article examines the preparation of the report on the cost of manufactured products, focusing on both theoretical and practical aspects. The study analyzes the concept of product cost, its economic essence, and its role in accounting. It also considers the classification of production costs and the principles of including them in the cost of production.

The article describes in detail the methods of calculating product cost, the stages of its formation, and the procedure for preparing cost reports. The application of the weighted average method and other costing methods is also analyzed in practice. The results of the study show that the cost of production report plays an important role in determining financial results, controlling expenses, and supporting managerial decision-making in enterprises.

**Keywords:** product cost, production expenses, accounting, cost report, weighted average method, financial result, cost analysis.

### Annotatsiya

Mazkur maqolada ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobotni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda mahsulot tannarxi tushunchasi, uning iqtisodiy mohiyati hamda buxgalteriya hisobidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarni tasniflash va ularni tannarx tarkibiga kiritish tamoyillari ko'rib chiqilgan.

Maqolada mahsulot tannarxini hisoblash usullari, ularni shakllantirish bosqichlari hamda hisobotni tuzish tartibi batafsil yoritilgan. O'rtacha salmoqli usul va boshqa hisoblash usullarining amaliy qo'llanilishi ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobot korxonada moliyaviy natijalarini aniqlash, xarajatlarni nazorat qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish xarajatlari, buxgalteriya hisobi, tannarx hisobot, o'rtacha salmoqli usul, moliyaviy natija, xarajatlar tahlili.

### Kirish

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi korxonada faoliyatining moliyaviy natijalarini aniqlashda eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bozor

iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonaga o'zining raqobatbardoshligini ta'minlash, foyda darajasini oshirish va xarajatlarni samarali boshqarish uchun mahsulot tannarxini to'g'ri hisoblash va tahlil qilishga alohida e'tibor qaratadi. Shu sababli mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobot buxgalteriya hisobida muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi.

Mahsulot tannarxi korxonaga tomonidan ishlab chiqarish jarayonida sarflangan barcha iqtisodiy resurslar yig'indisini ifodalaydi. Unga xomashyo va materiallar, ishchi kuchi, ishlab chiqarish ustama xarajatlari hamda boshqa bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni kiradi. Ushbu xarajatlarni to'g'ri hisobga olish va ularni tizimli ravishda tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.(1)

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobot korxonaning ma'lum bir davrda ishlab chiqarilgan mahsulotlari bo'yicha sarflangan xarajatlarni umumlashtiradi va ularning yakuniy qiymatini ko'rsatadi. Ushbu hisobot yordamida korxonaga rahbariyati ishlab chiqarish samaradorligini baholash, ortiqcha xarajatlarni aniqlash hamda ularni kamaytirish bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'ladi.(2)

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatida xarajatlarni aniq hisoblash va ularni nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi to'g'risidagi hisobotni to'g'ri shakllantirish va tahlil qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada mahsulot tannarxi tushunchasi, uni hisoblash usullari hamda hisobotni shakllantirish jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi.

### **Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxining tushunchasi va mohiyati**

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi korxonaga tomonidan ma'lum bir davr ichida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotni yaratish uchun sarflangan barcha iqtisodiy resurslarning puldagi ifodasidir. Tannarx korxonaga faoliyatining eng muhim iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan xomashyo va materiallar, ishchilarning ish haqi, ishlab chiqarish bilan bog'liq ustama xarajatlarni hamda boshqa bevosita ishlab chiqarish xarajatlarini o'z ichiga oladi. Tannarx mahsulotning real qiymatini ko'rsatadi va korxonaga moliyaviy natijalarini aniqlashda asosiy baza bo'lib xizmat qiladi.

Tannarxning mohiyati shundan iboratki, u korxonaga tomonidan yaratilgan mahsulotning iqtisodiy qiymatini ifodalaydi va ishlab chiqarish samaradorligini baholash imkonini beradi. Ya'ni tannarx qanchalik past bo'lsa, korxonaning foyda olish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli tannarxni to'g'ri hisoblash va uni doimiy ravishda tahlil qilib borish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda juda muhim ahamiyatga ega.(3)

Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi IAS 2 “Inventories” xalqaro standarti (4) va O‘zbekiston Respublikasi BHMS “Zaxiralar” standartlari asosida aniqlanadi.(5) Ushbu standartlarga ko‘ra tannarxga faqat ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq xarajatlar kiritiladi. Ular tarkibiga xomashyo va materiallar, ishlab chiqarish ishchilarining ish haqi hamda ishlab chiqarish ustama xarajatlari kiradi. Ma‘muriy xarajatlar, sotish xarajatlari va moliyaviy xarajatlar esa tannarx tarkibiga kiritilmaydi, balki davr xarajatlari sifatida alohida hisobga olinadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkich bo‘lib, u nafaqat xarajatlar miqdorini, balki korxonaning iqtisodiy samaradorligini ham aks ettiradi. Tannarxni to‘g‘ri aniqlash korxonaning raqobatbardoshligini oshirish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

### **Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash va shakllantirish tartibi**

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini hisoblash va shakllantirish xalqaro amaliyotda IFRS (IAS) standartlari hamda milliy buxgalteriya tizimida BHMS asosida amalga oshiriladi. Har ikkala tizimning asosiy maqsadi bir xil bo‘lsa-da, ya‘ni mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash, ularning yondashuvi va hujjatlashtirish tartibida ayrim farqlar mavjud.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga ko‘ra, ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi asosan **IAS 2 – Inventories** standarti asosida hisoblanadi. Ushbu standartga muvofiq, mahsulot tannarxiga faqat ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq xarajatlar kiritiladi. Bular xomashyo va materiallar xarajatlari, bevosita mehnat xarajatlari hamda ishlab chiqarish ustama xarajatlari iborat. IAS 2 talabiga ko‘ra, ma‘muriy xarajatlar, sotish xarajatlari va moliyaviy xarajatlar mahsulot tannarxiga kiritilmaydi, ular davr xarajatlari sifatida tan olinadi. Tannarxni hisoblashda FIFO (birinchi kiritim – birinchi chiqim), LIFO (ba‘zi davlatlarda cheklangan) va o‘rtacha salmoqli usul kabi baholash usullari qo‘llaniladi. Xalqaro standartlarda asosiy e‘tibor zaxiralarni eng past qiymat — tannarx yoki sof realizatsiya qiymati bo‘yicha baholashga qaratiladi.(6)

Mahsulot tannarxi IFRS bo‘yicha shakllantirilganda asosiy hujjatlar sifatida ishlab chiqarish hisobotlari, materiallar sarfi vedomostlari, ish haqi hisob-kitob hujjatlari, ishlab chiqarish ustama xarajatlari kalkulyatsiyasi va ombor hisobotlari xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar asosida har bir mahsulot birligi uchun to‘liq yoki o‘rtacha tannarx aniqlanadi va moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida esa mahsulot tannarxi BHMS (Buxgalteriya hisobi milliy standartlari) asosida hisoblanadi. BHMS tizimida ayniqsa **4-son BHMS “Zaxiralar”**(7) va tegishli metodik ko‘rsatmalar muhim o‘rin tutadi. BHMSga ko‘ra ham tannarx tarkibiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri material xarajatlari, ishlab chiqarish ishchilari mehnat haqi va ishlab chiqarish ustama xarajatlari kiritiladi. Ammo BHMSda ayrim

hollarda hisob yuritish milliy xususiyatlar va korxonalar hisob siyosatiga ko'proq bog'liq bo'lishi mumkin.

BHMS bo'yicha tannarxni shakllantirishda asosiy hujjatlar quyidagilardan iborat: materiallarni omborga kirim qilish va chiqim qilish hujjatlari (M-4, M-11 shakllar), ishlab chiqarish hisobotlari, ish haqi vedomostlari, texnik normativlar, kalkulyatsiya jadvallari hamda tayyor mahsulotni topshirish dalolatnomalari. Ushbu hujjatlar asosida har bir mahsulot turi bo'yicha tannarx kalkulyatsiyasi tuziladi va buxgalteriya hisobida qayd etiladi.

IFRS va BHMS o'rtasidagi asosiy farq shundaki, IFRS ko'proq xalqaro taqqoslanish va investorlarga yo'naltirilgan bo'lsa, BHMS milliy iqtisodiy sharoit va davlat talablari asosida ishlab chiqilgan. Shunga qaramay, ikkala tizimda ham asosiy tamoyil bir xil — mahsulot tannarxini aniq, ishonchli va hujjatlar bilan asoslangan holda shakllantirishdir.

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi IFRSda IAS 2 standarti asosida global yondashuvda, BHMSda esa milliy standartlar va ichki hisob hujjatlari asosida shakllantiriladi. Har ikkala tizimda ham hujjatlashtirish, xarajatlarni to'g'ri tasniflash va aniq kalkulyatsiya qilish asosiy talab hisoblanadi.

### **Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisobotini tuzish va tahlil qilish**

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisobotini tuzish va tahlil qilish buxgalteriya hisobining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini baholashda asosiy axborot manbai hisoblanadi. Ushbu hisobot korxonalar tomonidan ma'lum davr ichida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarga sarflangan barcha ishlab chiqarish xarajatlarini umumlashtiradi va ularning yakuniy tannarxini ko'rsatadi. Hisobotni to'g'ri tuzish korxonalar moliyaviy natijalarini aniq baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur hisoblanadi.

Hisobotni tuzish jarayoni odatda bir necha bosqichdan iborat bo'ladi. Avvalo, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelgan barcha xarajatlar aniqlanadi. Bunga xomashyo va materiallar sarfi, ishchilarning ish haqi, ishlab chiqarish ustama xarajatlari hamda boshqa bevosita ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Keyingi bosqichda ushbu xarajatlar tasniflanadi va to'g'ridan-to'g'ri hamda bilvosita xarajatlarga ajratiladi. So'ngra xarajatlar ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga taqsimlanadi va har bir mahsulot birligining tannarxi hisoblanadi.

Tannarx hisobotini shakllantirishda buxgalteriya hujjatlari muhim rol o'ynaydi. Materiallar chiqim vedomostlari, ishlab chiqarish hisobotlari, ish haqi hisob-kitob hujjatlari, ishlab chiqarish ustama xarajatlari kalkulyatsiyasi va ombor ma'lumotlari asosiy manba hisoblanadi. Ushbu hujjatlar asosida umumiy ishlab chiqarish xarajatlari jamlanadi va mahsulot tannarxi aniqlanadi.

Hisobotni tahlil qilish esa korxonada faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash imkonini beradi. Tahlil jarayonida asosiy e'tibor tannarx tarkibidagi har bir xarajat turining ulushiga, ularning o'zgarish dinamikasiga hamda reja va haqiqiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlarga qaratiladi. Agar tannarx ortib borayotgan bo'lsa, uning sabablarini aniqlash va xarajatlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, tahlil jarayonida rentabellik darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan foydalanish darajasi ham o'rganiladi. Bu ma'lumotlar korxonada rahbariyatiga ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish va iqtisodiy natijalarni yaxshilash bo'yicha qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi hisobotini tuzish va tahlil qilish korxonada faoliyatining moliyaviy holatini aniqlash, xarajatlarni nazorat qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi.

### **Tannarxni optimallashtirish va boshqaruv qarorlari uchun foydalanish**

Tannarxni optimallashtirish korxonada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va foyda darajasini ko'paytirishga qaratilgan eng muhim boshqaruv jarayonlaridan biridir. Tannarxni optimallashtirish deganda mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish hamda sifatni saqlagan holda iqtisodiy tejamkorlikka erishish tushuniladi. Bu jarayon buxgalteriya hisobi va boshqaruv hisobi ma'lumotlariga asoslanadi, chunki aynan tannarx to'g'risidagi aniq ma'lumotlar korxonada rahbariyatiga to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

Tannarxni optimallashtirishda asosiy e'tibor xarajatlar tarkibini tahlil qilishga qaratiladi. Bunda xomashyo va materiallar sarfi, ishchi kuchi xarajatlari, ishlab chiqarish ustama xarajatlari va boshqa bevosita hamda bilvosita xarajatlar o'rganiladi. Agar ushbu xarajatlar ichida ortiqcha sarf yoki samarasiz foydalanish holatlari aniqlansa, ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Masalan, resurslarni tejamkor texnologiyalar orqali ishlatish, ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish yoki zaxiralarni optimal boshqarish orqali tannarxni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Tannarxni optimallashtirish jarayonida budjetlashtirish va rejalashtirish ham muhim rol o'ynaydi. Korxonada oldindan ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtiradi va ularni haqiqiy natijalar bilan solishtiradi. Reja va fakt o'rtasidagi farqlar tahlil qilinib, ortiqcha xarajatlar sabablari aniqlanadi. Bu esa boshqaruv qarorlarini asosli qabul qilishga yordam beradi.

Boshqaruv qarorlarida tannarx ma'lumotlari strategik ahamiyatga ega. Rahbariyat mahsulot narxini belgilashda, yangi mahsulot ishlab chiqarishni boshlashda yoki ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda aynan tannarx ko'rsatkichlariga tayanadi. Agar tannarx yuqori bo'lsa, mahsulotning bozordagi raqobatbardoshligi pasayadi, shu sababli uni kamaytirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi.

Shuningdek, tannarxni optimallashtirish korxonaning foyda va zararini aniqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Tannarx kamaygan sari foyda marjasi oshadi, bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Shu sababli zamonaviy korxonalarda tannarxni doimiy nazorat qilish va tahlil qilish boshqaruv tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Ergasheva Sh.T. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. Darslik. – T.: TDIU, 2021.
2. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2019.
3. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020.
4. International Accounting Standards Board (IASB). *IAS 2 Inventories*. IFRS Foundation. <https://www.ifrs.org>
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. *Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS)*. <https://mf.uz>
6. Toshmatov N., Ismanov I., Buzurkhanov S. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz>